

## TALABALARНИ VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

**Alimjon Obloqulovich Xudoyqulov**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

### ANNOTATSIYA

Maqolada yosh avlodning, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanish dolzarb muammolardan biri ekanligi haqida so'z boradi. Kelajak avlodning o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyat tomonidan moddiy va ma'naviy boyliklar yaratish masalasi muntazam ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yaratilishini o'z ajdodlari darajasidan ham yaxshiroq o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Shuningdek, maqolada Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiyasining qabul qilingani, armiya va xalq birligini ta'minlash borasida mahalliy davlat hokimiyyati organlari bilan hamkorlikdagi ishlarning kuchaytirilgani tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** yosh avlod, moddiy, ma'naviy boylik, tarbiyalash, kontseptsiya, harbiy-vatanparvarlik, pedagogik imkoniyat.

### **KIRISH**

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishning eng muhim shartlaridan biri bu yuqori professional, haqiqiy vatanparvar, o'z burchiga sodiq, fidoyi hamda mard o'g'lolnarni tarbiyalash hisoblanadi. Shunday ekan, shaxsning kamol topishi, ma'nan yetuk inson bo'lib tarbiyalanishida uning oila a'zolari, yon atrofidagi do'stlari, xamkasblari, xususan, jamiyatning har bir bo'g'inining o'rni beqiyosdir. Shaxs tarbiyasi har qanday jamiyat va mamlakatning farovon, rivojlangan hamda ijtimoiy himoyalangan bo'lishida, millat sog'lomlashuvi va yuksalishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etuvchi muhim omillardan biri sanaladi.

Zero, tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakatning hayotini farovon bo'lishi, millat sog'lomlashuvi va yuksalishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etuvchi muhim omillardan biridir.

Yosh avlodning umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat parokandalik va inqirozga mahkumdir. Negaki, kelajak avlodning o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyat tomonidan moddiy va ma'naviy boyliklar yaratish masalasi muntazam ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh

avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yaratilishini o'z ajdodlari darajasidan ham yaxshiroq o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

Yoshlarda mana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira olish uchun esa, jamiyat samarali faoliyat ko'rsatadigan mustaqil tarbiyaviy tizimiga ega bo'lishi lozim.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog'liq jarayonlarga yangicha sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladи. Uni targ'ib qilishda ilmiy asoslangan holda chuqur tahlil asosida turli g'ayri yondashuvlardan voz kechildi. Tarbiyaning milliyligi va insoniyligiga alohida e'tibor qaratildi va qaratib kelinmoqda. Buning uchun xalqning ma'naviy boyliklari, jumladan, o'zbek mutafakkirlarining mazkur masala yuzasidan qarashlari sinchkovlik bilan o'rganishni va yosh avlodga keng targ'ib qilishni talab etmoqda. Natijada, O'zbekiston jamiyatida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o'ziga xos o'rni borligi yanada teranroq isbotini topmoqda.

Ayni vaqtida, dunyo jamiyatida shaxsning shakllanishida tarbiyaning ahamiyatiga yetarlicha baho berilmayapti. Bu hol tarbiyaga doir hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri anglash imkoniyatini yaratmayapti.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqida "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq" [1] ekanligini ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Barkamol avlod orzusi" asarida "Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz", va yana "Yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan odamlarning yetishmasligi bizning olg'a siljishimizda hamon katta to'siq bo'lib turibdi. Bunday kadrlarni, avvalambor, yosh kadrlarni topish, o'stirish, tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylanmoqda [2]", deb juda o'rinli ta'kidlagan.

## ADABIYOTLAR ShARHI

Aslini olganda, tarbiyaning lug'aviy ma'nosi – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni

shakllantirishga karatilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida amalgalashiriladigan chora-tadbirlar majmuidir. Tarbiya insonning faqatgina biologik emas ijtimoiy faolligini, munosabatlarini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyatni ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi [3].

Bugun nafaqat bir oila, balki yer sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, unda yashovchi xalqlarning farog‘ati ham shak-shubhasiz tarbiya tufaylidir. Dunyoda tarbiya singari insoniyatga ta’sir ko‘rsatadigan kuch yo‘qdir. Shu sababli, qadimdan mashhur donishmandlar tarbiya to‘g‘risida qimmatli fikrlarni biz avlodga yozib qoldirganlar. Xusan, ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan “Pandnoma”, “Siyosatnoma”, “Qobusnoma”, “Qutadg‘u-bilig”, “Axloqi muhsiniy”, “Axloqi jaloliy”, “Axloqi nosiriy”, “Qonuni hikmat”, “Nigoriston”, “Bahr al-ulum”, “Kachko‘li sultoniy”, “Jovidoni xirad”, “Bistu se hikmat”, “Hikoyoti dilpisand”, “Odob as-solihin”, “Turkiy Guliston - yoxud axloq” singari asarlar shular jumlasidandir. Ushbu nodir asarlarda keltirib o‘tilgan barcha ma’lumotlarning negizi odob-axloq hamda mukammal tarbiyaga bog‘liq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli, ma’naviy boyliklarimizdan bo‘lgan mazkur asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan kelmoqda.

Xitoy donishmandi Syun-Tszi “Chaqaloqlar hamma yerda bir xil yig‘laydi. Katta bo‘lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu – tarbiyaning oqibati”, deb yozgan edi. Olmon faylasufi Immanuil Kant o‘z asarida “Inson faqat tarbiya orqali inson bo‘ladi, uning qanday shakllanishi tarbiyaning natijasidir” degan fikrni ilgari suradi.

Tarbiya borasida Sa’diy Sheroziy o‘z asarlarida shunday misralarni keltiradi:

Minbarning poyida tursa ham eshak,  
Tarbiya yuqmaydi, bo‘lmaydi odam.  
Tarbiya ko‘rmayin ulg‘aysa kishi.  
Eshak bo‘lib qolur yuzga kirsa ham [4].

Alixonto‘ra Sog‘uniy tarbiya xususida “Yolg‘iz insonga emas, barcha mavjudotlarda ta’lim-tarbiya ta’siri ko‘z oldimizda ko‘rilib, buning natijalari butun dunyoga tarqalib turmoqda. O‘qitish-o‘rgatish buyon tursin, suhbat o‘zi ham, suhbatdoshlarga o‘t bilan suvdek tez o‘tadi. Shuning uchun ham har kimga, suhbat yo‘ldoshlariga qarab baho berilishi” degan qarashlarni bildirib, insonning kamolotida tarbiyaning o‘rni haqida to‘xtalib o‘tgan.

Ma’lumki, ulug‘ mutafakkir ajdodimiz Abu Ali ibn Sino asarlarida ilm va axloq uyg‘unligi masalasi alohida o‘rin tutadi.

Allomaning “Tadbiri manzil” risolasida tarbiya masalasi ko‘proq tahlil etilgan. Xususan, asarda inson tayyor shaxsiy sifat, odat va ko‘nikmalar bilan tug‘ilmasligi qayd etiladi. Bunday xususiyatlar odamning ijtimoiy hayotida sekin-asta shaxsiy va o‘zgalar tajribasi, avvalgi ajdodlar an’analari, ta’lim-tarbiya o‘zgalarning ta’siri ostida shakllanishi, shuningdek shaxs kamolotida ijobiy fazilat va odatlarni qaror toptirish qanchalik qiyin va mushkul bo‘lsa, salbiy jihat va odatlardan xalos bo‘lish qanchalik murakkabligini ta’kidlaydi [5].

## MUHOKAMA

O‘zbekiston Respublikasi davlatchiligi tarixida jadidchilar tomonidan jamiyatning har bir bo‘g‘inini har tomonlama zamonaviy yangiliklar, tarbiyaning oilada, jamiyatda va davlatchilikda tutgan o‘rnini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilgan.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko‘p joylarida jadidchilik harakatlarinig ko‘lami ortdi. Ularning asl maqsadlari ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar yo‘li bilan xalq va jamiyat hayotini yaxshilashga, madaniy yuksaklikka olib chiqishga qaratildi. Bunga erishish uchun esa ta’lim tarbiyaning o‘rni va ahamiyatiga e’tiborni kuchaytirdilar.

Xususan, jamiyatni yetuklikka olib chiqishda tarbiyaning o‘rni va ahamiyati nechog‘lik muhim ekanligini barchamizga ayon ekanligi hamda tarbiyaga e’tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishini o‘z vaqtida Abdulla Avloniy kuyunib, “Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboslar, o‘g‘rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e’tibor berilmagan bolalardir [6]”, deb yozib qoldiradi.

Shu bilan birga, ta’lim-tarbiya har bir jamiyatning kichik bo‘g‘inidan tortib davlat darajasigacha e’tibor beriladigan soha hisoblanadi. Zero, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan so‘zlarida har bir insonda vatanparvarlik,adolat, millatparvarlik, insonparvarlik, yurtsevarlik, el-yurtni himoya qilish, Vatanga sadoqat va muhabbat kabi xislatlarni o‘zida jamlagan milliy dunyoqarashning asosiy unsurlari o‘z tasdig‘ini topadi.

Adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat “Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqir bo‘lib, baxtsizlik yukini tortib e’tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan

oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvgaga o‘xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar” [6], deydi. Alloma nazdida insonlar tarbiyasini barvaqt boshlashi to‘g‘risida “Bola tana bo‘g‘inlari barqaror bo‘lgan, uning tili to‘g‘ri, ravon gapishtirish va quloqlari tinglash va o‘zgalar so‘zlarini qabul qilish hamda o‘rganilayotgan narsaga (tabiiy) moyillik paytdan boshlab uni ilmlar va axloq-odob (asoslari)ga o‘rgatib borish lozim” ekanligini takidlab o‘tadi.

Yuqoridagilardan shu narsa ma’lum bo‘lmoqdaki, hamma vaqt tarbiyada butun ish nafaqat ota-onalarga, balki go‘zal axloq va ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan ustoz-muallimlarning sa’y-harakatiga ham bevosita bog‘liq. Bunda ishni tashkil qilish shakllarinigina emas, ayni paytda, ishslashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish shartlarini bilish ham muhimdir.

Ma’lumki, tarbiya turli hududlarda turli xil ko‘rinishda talqin qilinadi. Insoniyat tarixida, har bir jamiyat shakllanishida ta’lim-tarbiyaning o‘rni va ahamiyati, nazariya va ta’limotlari insoniyat rivojlanishida muhim o‘rin egallamoqda.

Xususan, Qadimgi Yunonistonda tarbiya pedagogik nazariya, pedagogik falsafanining uzviy qismi sifatida rivojlandi. Shu sababli, mashhur yunon faylasuflari Suqrot, Aflatun, Demokrit, Arastu va boshqa mutafakkirlar ta’limotida ta’lim-tarbiya muhim o‘rinni egalladi. Ushbu mutafakkirlar tomonidan Yunonistonda ta’lim va tarbiya nazariyasi ishlab chiqilib, pedagogikaning rivojiga ulkan hissa qo‘sildi [7].

Suqrotning falsafiy va pedagogik qarashlarida tarbiyadan kutilgan maqsad - insonning bilimlarni bilib olishga erishish, uni yuksak axloqli qilib kamol toptirishdir. Uning fikricha, mardlik - qo‘rquvni daf qilish, donolik - jamiyat qonunlariga rioya qilish, mo‘tadillik - o‘z hissiyotlariga erk bermaslik,adolat - yaxshilikni amalga oshirish yo‘llarini o‘rgatishdir.

Aflatun tarbiyani tashkil etish haqidagi fikrlarini “Davlat” va “Qonunlar” asarlarida bayon etadi. Aflatunning fikricha, kattalarning bolalarga ko‘rsatgan ta’siri, bolalarda axloqiy sifatlarning tarkib topishida ko‘rinadi. Aflatun his-tuyg‘uga ta’sir etish kichik yoshdagagi bolalarni tarbiyalashning asosi, deb hisoblaydi. Kichik yoshdagagi bolalar huzur qilish, zavqlanish, qayg‘urish orqali yaxshilik va baxt-saodat tushunchalari haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Aflatun “Davlat” asarida bolalarni yoshligidan boshlab ijtimoiy tarbiyalash g‘oyasini olg‘a surdi va uni tashkil etishning muayyan tizimini taklif etdi.

Arastu o‘zining axloqqa oid “Nikomax etikasi”, “Endem etikasi” asarlarida tarbiyaning maqsadi tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan insonni tadrijiy rivojlantirishdan iboratligini va buning uchun aql va irodani rivojlantirish muhim ekanligini aytadi. Uning ta’limotiga ko‘ra,

bolalarining yosh xususiyatini hisobga olgan holda, jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya uzviy birlikda amalga oshirilishi kerak. Arastu tarbiya muddatini 21 yil, ya’ni bola tug‘ilganidan 7 yoshgacha, 7 yoshdan 14 yoshgacha, 14 yoshdan 21 yoshgacha deb belgiladi. U bolaning har bir davrdagi o‘ziga xos xususiyatini ko‘rsatdi, har bir davrda amalga oshiriladigan tarbiyaning maqsadi, mazmuni va usullarini bayon etdi. Arastu bola tarbiyasi davlat ixtiyorida va barcha fuqarolar uchun bir xilda bo‘lishini himoya qiladi. Shunki, davlat tarbiyada o‘z oldiga aniq bir maqsadni qo‘yadi. Shuning uchun ham, tarbiyaga o‘z xohishiga ko‘ra o‘qitish va tarbiyalashni istagan ota – onalar emas, davlat rahbarlik qilishi kerak. Har bir fuqaro o‘z – o‘zicha yashamaydi, u barcha fuqarolar kabi, davlatga mansubdir, davlatning uzviy bo‘lagidir. Davlat uning haqida g‘amxo‘rlik qiladi.

Buyuk slovyan pedagogi Yan Amos Komenskiy o‘rta asrdagi tarbiyadan farqli o‘laroq, tug‘ilganidan boshlab bola egallagan qobiliyatini xudoning tuhfasi hisobladi va ayni paytda, bu qobiliyat faqat tarbiya jarayonida rivojlanishini uqtirdi. Komenskiy insonning rivojlanishida tarbiyaning o‘rni benihoya ekanligiga ishonadi va tarbiya tufayligina har qanday bolani yuksak axloqli, ma’lumotli qilib yetishtirish mumkin degan fikrni bildirdi hamda bolani yoshlik chog‘idan jismonan sog‘lom, ma’naviyatli qilib tarbiyalashni talab qildi.

Jan Jak Russonninng “Emil yoki tarbiya to‘g‘risida” nomli romanida ozod, yangi odamni tarbiyalash yo‘llari ko‘rsatildi. Tabiiy tarbiya – erkin tarbiyadir. Bola o‘zining noto‘g‘ri ishlari natijasini, shu ishlar tufayli paydo bo‘ladigan zararli oqibatlarni his qilishi lozim. Russo tarbiyani hayot, tabiat bilan bog‘liq holda amalga oshirishni, mehnat tarbiyasiga e’tibor berishni talab etdi [8]. Uning bu g‘oyalari pedagogik nazariya va tajribaning rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yunon faylasufi Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi”, degan so‘zları, qarang, miloddan 350 yil avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta’lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyatga kasb etib kelmoqda [9] deb fikr bildirgan edi.

“Derazani ochsang toza havo bilan birga chang ham kiradi” degan maqoldan kelib chiqib, ommaviy axborot vositalari va internet orqali ham bizning qadriyatlarimizga zid bo‘lgan har xil madaniyatlar, axloqsizlik va vahshiylilikni targ‘ib qiluvchi materiallar kirib kelmoqda (reklamalardagi ommaviy madaniyatga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan holatlar).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli

Farmonida belgilangan 100 ta maqsadlarning aksariyatida aholi va avvalo yoshlar tarbiyasiga, xususan 39, 70, 71, 73, 78 va 90 maqsadlarida alohida to‘xtalib o‘tilgani, tarbiya masalasining davlat va jamiyat rivojlanishida naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqda.

Har qanday jarayon muayyan natijaga erishishga qaratilgan qonuniy va izchil harakatlar majmuidan iborat bo‘ladi. Tarbiya jarayonining eng asosiy natijasi – har tomonlama uyg‘un va kamol topgan, yangi tipdagi shaxsni shakllantirishdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo‘lib, uyuştirishni va rahbarlikni ham, tarbiyalanuvchi shaxsning o‘zi ham faoliy ko‘rsatishini taqozo qiladi.

Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga kompleks yondashish yo‘li bilan eng muvaffaqiyatli tarzda ilmiy tahlil qilish mumkin. O‘z tabiatiga ko‘ra, tarbiya jarayoni ko‘p faktorli xarakterga ega. Buning ma’nosи shuki, bola shaxsining qaror topishi mакtab, oila, jamoatchilik, muhit va yaqin atrofdagi vaziyatning xilma-xil, bevosita va bilvosita ta’siri ostida ro‘y beradi. Ta’kidlash zarurki, shaxsni odamlar, ashyolar, voqealar, ota-onalar va pedagoglar tarbiyalaydi.

Yoshlarni yuqori professional, vatanparvar, fidoyi va mard qilib tarbiyalash O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontsepsiyasining qabul qilingani, armiya va xalq birligini ta’minalash borasida mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikdagi ishlarning kuchaytirilgani milliy armiyamiz saflarini mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yoshlar bilan to‘ldirib borish imkonini bermoqda.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, biz bugun dunyoda va mintaqamizda turli tahdid va xatarlar kuchayib borayotgan tahlikali bir zamonda yashamoqdamiz. Ko‘plab buzg‘unchi kuchlar o‘zlarining g‘arazli maqsadlari bilan yosh avlodning ongini egallashga urinmoqdalar. Bunday tahlikali vaziyatda jondan aziz farzandlarimizni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Bir haqiqatni barchamiz chuqr anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi” deb ta’kidlagan fikrida tarbiyaning ahamiyati yaqqol ochib berilgan [10].

Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni Sh.M. Mirziyoyev tashabbuslari bilan birinchi marta umumta’lim maktablarda “Tarbiya” fani joriy etildi [11].

Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan “Turkiy “Guliston” yoxud axloq” asari sharqona tarbiyaning noyob qo‘llanmasi sifatida bugungi kunda ham o‘zining qadri va ahamiyatini yo‘qotgan emas. Biz harbiy xizmatchilarni tarbiyalashda mana shunday beba ho asarlardan samarali foydalanishimiz zarur.

Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, barcha aholi qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, mamlakatimizdagi mavjud uzluksiz ta’lim tizimi bugungi kunda aholining beshdan bir qismini qamrab oladi. Ushbu toifadagi bolalar va o’smirlardan tashqari, aholining katta qismi orasida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning tizimli yo‘lga qo‘yilishi, bu borada yuksak samaradorlikka erishish shartiga aylanmoqda.

Ayniqsa “Bir ziyoli – bir mahallaga ma’naviy himoya” tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o‘qituvchilar va taniqli ziyolilarning jalb etilayotgani muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning bu ishga mas’uliyat va kuyunchaklik bilan yondoshishlari samarali natija hisoblanadi. Bunday jonkuyar insonlarni munosib rag‘batlantirish esa dolzarb masalalardan biridir.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi” deb ta’kidlagan fikrida ustoz-murabbiy an’anasining ahamiyati yaqqol ochib beril gan [12].

Xususan, Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Imom G’azzoliy, Bahouddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Ahmad Yassaviy kabi allomalarining yoshlar tarbiyasi, axloq komilligi haqidagi fikrlari asrlar mobaynida milliy shuur va ongni shakllantirishda katta o‘rin tutadi. Ularning asarlarida vatanparvarlik, xalqparvarlik, odob-axloq, mehr va muruvvat, sabru-qanoat,adolat, halollik, poklik hamda mukammal tarbiyaga bog‘liq tushunchalar ham o‘z ifodasini topgan.

Shu sababli, buyuk allomalarimizning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan kelmoqda. O‘tgan uch yil davomida mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash bo‘yicha 47 ta

qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. 70 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Yoshlarni madaniyat, san'at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotinqizlar bandligini ta'minlash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni o'z ichiga olgan besh muhim tashabbus ilgari surildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "Har bir nuroni – besh nafar yoshta murabbiy" tamoyili bo'yicha nuroni oqsoqollarmiz, muhtaram onaxonlarimizni tarbiyasi og'ir, ma'naviy ko'makka muhtoj, uyushmagan, ishsiz yoshlarga biriktirib qo'yish amaliyoti keng qo'llanib kelinmoqda.

Biz yoshlarimizni vatanparvarlik, azmu-shijoat, mardlik va jasorat ruhida tarbiyalashda muhtaram ziyolilarimiz, faol va fidoyi olimlarimiz hamda ijodkorlarimizning yordamiga tayanamiz. Ayniqsa, ulug' allomalarimiz, buyuk sarkarda bobolarimizning hayoti va jangovar faoliyati, ularning harbiy merosini o'rGANISH hamda yoshlarimiz o'rtasida targ'ib etish katta ahamiyatga egadir.

## REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar – Yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqidan. [www.xs.uz](http://www.xs.uz). "Xalq so'zi" gazetasidan, 1 oktyabr 2020 y. №207 (7709).
2. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Barkamol avlod orzusi" asari. 192 b.
3. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi – T harfi, Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent. 114 b.
4. Tarbiya – buyuk ne'mat. N.Abdulaxatov, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi doktoranti, tarix fanlari nomzodi. – <https://yuz.uz/news>
5. Tarbiya – buyuk ne'mat. N.Abdulaxatov, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi doktoranti, tarix fanlari nomzodi. <https://yuz.uz/news>
6. Yevropada XIX-XX asrda tarbiya, maktab va pedagogik fikr (Yan Amos Komenskiy, Jan Jak Russo, K.D.Ushinskiy, Makarenko, V.Suxomlinskiy). <https://uz.denemetr.com/docs/134/index-235089>
7. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yangi O'zbekiston Strategiyasi, 224 b.
8. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yangi O'zbekiston Strategiyasi / Ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi. 288 b.

9. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yangi O‘zbekiston Strategiyasi / Ta’lim va tarbiya: yangi imkoniyatlar. 227 b.
10. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yangi O‘zbekiston Strategiyasi, 288 b.
11. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yangi O‘zbekiston Strategiyasi / Ta’lim va tarbiya: yangi imkoniyatlar. 227 b.
12. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. 288 b.